

ALISHER NAVOIY ASARLARIDAGI KIYIM NOMLARINING
LINGVOPOETIK VA LINGVOKULTROLOGIK TADQIQI

Jo'rayeva Laylo Jiyanqulovna

Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

laylojoyrayeva384@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10670896>

Annotatsiya: A.Navoiy asarlarida kiyim nomlari yoki umuman kiyim leksemasi ham turli shaklda ifodalangan. Kiyim nomlaridan tashqari mato nomlari ham bir necha xilda ishlatilganini uchratamiz.

Kalit so'zlar: kisvat, chaspon, chashmband, kapanak, yilak, qur, qasab, qumosh

Alisher Navoiy asarlarida qo'llangan har xil sohalarga oid leksik birliklar qatorida maishiy sohaga oid so'zlarni, xususan, kiyim-kechak leksemalarini tadqiq qilish xalqimizning o'sha davrdagi turmush tarzi, madaniyati, urf-odati, an'analari, jamiyat va til tarixi hamda o'zbek tilining lug'at boyligidan boxabar bo'lishda muhim rol o'ynaydi. Bu orqali o'zbek adabiy tilining ma'lum rivojlanish bosqichida leksemalar va ularning ma'no taraqqiyotini aniqlash, tarixiy-maishiy terminologiya va uning rivojlanishi, leksikologiyada qo'llanilgan so'zlarni o'zlashtirish, umuman, leksik-semantik jarayonlarni kuzatish imkonini beradi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanuvchi kiyim-kechak nomlari uzoq tarixga egadir. Ular jamiyat taraqqiyoti va turmushdagi o'zgarishlarga mos ravishda tilning o'z ichki imkoniyatlari va chetdan so'z o'zlashtirish orqali boyib borgan. Ularning ko'pchiligi hozirgi o'zbek adabiy tilida mavjud bo'lsa, muayyan qismi o'zbek shevalarida uchraydi. Tabiiyki, davr o'tishi bilan kiyim-kechakni ifodalagan bir qator leksemalar arxaiklashgan. Umumturkiy bo'lgan ko'pgina kiyim nomlari bugungi kunda ham turkiy tillarda qo'llanib kelmoqda.¹ Shu jihatdan bu kabi leksemalarni 2 ga bo'lish mumkin: Bugungi kunda ham saqlanib qolgan leksemalar hamda bugungi kunda ishlatilmaydigan eskirgan kiyim nomlari.

Oh dudidan qaro ermas Navoiy **kisvati**,

Kim aning oldiga solmish bo'yla motam ishtiyoq.²

Kisvat- kiyim, ust-bosh ,libos. Kisvat leksemasi bugungi kunda qo'llanilmaydi. Esirgan leksema sanaladi. Bu yerda kisvat umumiy kiyim bosh ma'nosida qo'llanilgan. Bilamizki, xalqimiz motam marosimlarida asosan qora libos

¹ Maxammadiyev X.L. Alisher Navoiy asarlarida kiyim-kechak nomlar tahlili haqida. Samdu. Ilmiy axborotnoma. 2021. 2-son, 41b.

² Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildli. 3-jild. -T.: Fan, 1988. 322b

kiyishadi. Ya'ni shoir bu yerda shunchalik oh chekkanki, bu ohdan Navoiy kisvati motam libosi kabi qora emas, ya'ni shunchalar sof muhabbati tufayli o'zi ham kiyimlari ham toza va shaffof tarzda aks ettirilgan.

Libosi nozi **chaspondur**, gahi tuz qaddi chavgondur,

Zamoni go'yi g'altondur zihi chobuk, zihi dilbar. [2,198]

Chaspon- yopishib, yarashib turadigan kiyim. Bugungi kunimizda bo'lgani kabi Hazrat Navoiy zamonlarida ham kiyimlar bir-necha xil beqiyos nomlar bilan yuritilganini ko'ramiz. Oddiygina faqat kiyim ma'nosini ifodalash uchun kisvat so'zi qo'llanilgan bo'lsa, shu kiyimning insonga yarashib, chiroyli turgan shakli chaspon nomi bilan yuritilgan ekan. Chaspon leksemasi ham bugungi kunda tilimizda ishlatilmaydigan leksemalardan biri sanaladi.

Ul quyosh hajrida bilmonkim, Navoiy ko'ziga

Barcha olam tiyradur yo bog'lamishdur **chashmband**. [2,139]

Chashmband- qadimda xalqimiz foydalangan kiyim turlari yoki kiyimning bir qismi desak bo'ladi. Oldinlari bundan xotib-qizlarimiz ko'cha-kuyda begona kimsalarning nazari tushmasin degan maqsadda chashmbanddan foydalanishgan. Biz bugungi kunda undan kelinlarni to'y marosimlarda chimildiqqa solish jarayonida yoki, zamonaviy ko'rinishi sifatida bugungi kundagi kelinning oq ko'ylagi ustidan yuzni yopib turuvchi yupqa, harir to'r pardadan foydalanamiz. Chashmband bu- ko'zboylag'ich, chachvon, chimmat ma'nolarin ifodalaydi. Bugungi kunda ushbu leksema o'rnida ayrim hududlarda paranji leksemasi ishlatiladi. Demak, chashmband milliyligimizni aks ettiruvchi qadimiy libos turlaridan biri sifatida oldingi davrda va bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganini ko'ramiz.

Saltanat xil'atidin ortiq erur daytda mast,

Sudrasam boda gadolig'iga yirtuq **kapanak**. [2,349]

Yirtuq **kapanak**din chiqarib yalang qo'l

Ul qochsayu, men quvsam-u, men qochsamu ul. [2,762]

Kapanak- jundan qilingan ust kiyim, darveshlarning jun kiyimi. Bugungi kunda va oldingi davrlarda ham kiyimlar turli xil matolardan tayyorlangan. Masalan paxtadan, jundan v.b. Asosan, paxtadan tayyorlangan kiyimlar barcha zamonlarda ham qimmat sanalib, yo'qsul, darveshona kimsalar jundan tayyorlangan kiyimlarni kiyishgan va bunday kiyimlar kapanak deya nomlangan. Kapanaklar odatda issiq kiyim turi sanalib, asosan sovuq havo sharoitida foydalanishgan. Kapanak leksemasi ham bugungi kunda tilimizda foydalanilmaydigan leksemalardan biri sanaladi.



Ko'nglaking bargi gulu ustida gulrang **yilak**,
Gul kibi jisming uza uylaki, gulgun ko'nglak. [2,349]

Yilak- nimcha. Xalqimiz xotin-qizlarining kundalik turmushda qo'llanadigan ust kiyimi. Biz uni bugungi kunda "jaket", "nimcha" so'zlari bilan ifodalaymiz.

Beliga zarrishta **qurin** band etib,

Balki zarofat bila takband etib. [Hayrat-ul abror, 111]

Qur- belbog': Belbog' turkiy so'z bo'lib, bel – odam tanining o'rta qismi, bog'- bog'lanadigan narsa. Bu qo'shma ot qadimgi turkiy tilda bel bag' ы birikmasining bir so'zga birlashuvidan yuzaga kelgan, keyinchalik egalik qo'shimchasi talaffuz etilmay qo'ygan.

Bog' komponentli bu xil qo'shma so'zlarga yana qorinbog', qo'lbog', ishtonbog', bo'yinbog' so'zlarini ham keltirish mumkin.

Belbog' XI asr tilida qur, qurshag' so'zlari bilan ifodalangan. Qurshag' - qurshamoq (o'ramoq) fe'lidan olingan bo'lib, "Devonu lug'atit turk"da bu so'z (قرشاغ) qurshag' shaklida beriladi va belbog', bog', o'rama tarzida izohlanadi. Mazkur so'z o'tov ustidan aylantirib bog'lanadigan jiyak, o'tov jiyagi, arqoni kabi ma'nolarda ham ishlatilgan. XIV – XV asr va so'nggi davr manbalarida qur, belbog', po'ta so'zlari uchrab turadi:

A. Borovkov qur so'zini belga bog'lanadigan belbog' deb izohlagan. Qur, qurshog', belbog' so'zlarining tarixiy rivojlanishi yuzasidan o'tkazilgan kuzatishlar qur so'zi o'rnida keyingi asrlarda belbog' qo'llana boshlaganini ko'rsatadi.

Belbog', qur, qurshoq so'zlari hozirgi zamon turkiy til lug'atlari va yozma manbalarida quyidagi shakllarda uchraydi: ozarbayjon tilida – gurshag, xakas tilida xur, qumiq tilida belbog', no'g'oy tilida belbev, qirg'iz tilida belboo, qozoq tilida belbeu, o'zbek tilining qarluq-qipchoq shevalarida belqars.

O'zbek shevalarida: Qarshi, Shahrisabzda – qars, belqa(r)s, belbaq, qiyiq; Namangan, Uychi shevalarida belbog' , belvog' ,chorsi, qiyiqcha; Andijon, Farg'onada belvoq, // belvaq // belvag' , chorsi, qiyiq; Vobkentda ro'pakcha, tojiklar bilan aralash yashovchi ayrim o'zbeklar, masalan, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryoda miyonband, ro'pakcha deb yuritiladi.

Qiyiq nomi belbog' uchun belgilangan gazlamani uchma-uch keltirib buklab, qiyib yasaliş xususiyatini ifodalaydi va u qiymoq fe'lidan olingan. Bu nom Farg'ona vodiysi, Toshkent va uning atrofida yashovchi o'zbeklar nutqida uchraydi. Uning kichkina turi qiyiqcha. Ba'zan ikki belbog'li gazlamani o'rtasidan bo'lmay turib tikadilar va bunday shakl qo'sh qiyiq-qo'sha qiyiq deyiladi. Qars



(belqars) nomi Samarqand va uning atrofida yashovchi o'zbeklar tiliga oiddir. Qashqadaryo vohasining ayrim tumanlarida belbog' bilan belqarsning ma'lum farqli jihatlari ham bo'lgan. Jumladan, Yakkabog' va Dehqonobod tumanlarida erkaklarning bellariga bog'laydigan oddiy va kashtalanmagan mato bo'lagi belbog' deb, chiroyli kashtalar bilan bezatilgan qimmatbaho mato bo'lagi esa belqars deb nomlanadi.

Oy yuzing ayladi burqa'l **qasabin** yuz pora

Soldi har porasidin yerga yuzung partavi nur. [2,79]

Qasab- zar aralashtirib to'qilgan yupqa mato. Burqa'i qasabi- yopinchiqning yuzni to'sib turadigan qismi. Bugungi kunda ham , oldingi davrlarda ham kelinchaklar uchun maxsus liboslar tikilgan va bu liboslar tabiiyki chiroyli matolardan tayyorlangan, shu matolarga zar aralashtirib kiyimlar tikilgan. Biz bugungi kunda ham bunday matolardan foydalanamiz.

Gar yig'sa berib **qumoshig'a** kech.

Taklif etaolmayin kishi hech [2,673 Layli va majnun]

Qumosh- kiyim, nafis mato: Bugungi kunda bo'lgani kabi eski turkiy tilda ham matolar turli xil nomlar bilan yuritilganini ko'ramiz. Masalan, ular qasab, qumosh nomlari ham mato nomlarini anglatganini ko'ramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдли. VII-жилд. - Т.: Фан, 1998. 322б.
2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдли. III-жилд. -Т.: Фан, 1998.
3. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдли. IX-жилд. -Т.: Фан, 1998.
4. Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати
5. Махаммадиев Х.Л. Alisher Navoiy asarlarida kiyim-kechak nomlari tahlili haqida. Samdu. Ilmiy axborotnoma. 2021. 2-son, 41b.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. IV жилд. -Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2007.
7. Jiyanqulovna J. L. TIL, MILLAT VA MADANIYAT MUNOSABATI //THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 39-43.
8. Rustamova G., Sharofova G. USMON AZIM SHE'RIYATIDA KO'Z BILAN BOG 'LIQ SOMATIK OBRAZLAR DINAMIK POETIKASI //Solution of social problems in management and economy. – 2024. – Т. 3. – № 1. – С. 43-46.

